

O'ZBEKISTONDA YURIDIK SOHA UCHUN MILLIY RAQAMLI
HUQUQIY MA'LUMOTLAR SHIFRLASH TIZIMINI YARATISH

Omonullayev Abdulfayz

abdulfayz@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs 6-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15231949>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ma'lumotlarni shifrlash tizimi yaratish nima ekanligi, buni qo'llashning biz uchun qanday foydalari borligini, eng muhimi, qo'llanilgandan so'ng bizning huquq tizimimizda qanday o'zgarishlar ro'y berishi haqida muhokamalar olib boriladi. Bundan tashqari, bu kabi shifrlash tizimlarini yaratishning Legal Tech sohasi uchun bog'liq bo'lgan jihatlari, bu sohada olib borilgan taklif va tadqiqotlar, yuridik ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishi, raqamli huquqiy xizmatlarning ishonchlilagini oshirish uchun shifrlash algoritmlari, autentifikatsiya texnologiyalari va ma'lumotlar omborining mustahkamligi kabi elementlar yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ma'lumotlar xavfsizligi, electron hukumat, ma'lumotlar maxfiyligi, raqamli huquqiy innovatsiyalar, yuridik ma'lumotlar boshqaruvi, raqamli xizmatlar, shifrlash tizimi.

KIRISH

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohalarga o'z ta'sirini sezilarli darajada o'tkazmoqda, bu ta'sir O'zbekistonda yuridik sohani ham chetlab o'tmadi sababi, hozirgi zamonaviy hayotimizda aynan milliy huquq tizimimiz raqamli texnologiyalar asosida yangilanib, yanayam foydalanishga qulay hamda har qanday ma'lumotlarning xavfsizlik sifatini eng yuqori darajalargacha olib chiqish chora tadbirlari ko'rib borilimoqda. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda yuridik soha uchun milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar shifrlash tizimini yaratish-bu juda dolzarb va zomonaiy mavzu.

Bunday tizim yuridik ma'lumotlar xavfsizligini oshirish, huquqiy hujjatlarning yaxlitligini ta'minlash, shuningdek, sud, advokat va boshqa yuridik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar orasidagi axborot almashinuvi jarayonlarini yanada samarali qilish imkoniyatini beradi.

Maqolada yoritilayotgan ushbu mavzumizning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunga kelib deyarli barcha hujjatlar jumladan; fuqaroga tegishli shaxsiy ma'lumotlar, barcha turdag'i shartnomalar va hattoki davlatga tegishli bo'lgan sirlar ham elektron shifrlangan bazalarga

o‘tkazilmoqda, bu esa ushbu ma’lumotlarning xavfsizligini qat’iy e’tiborga olish zarurati kelib chiqayotganidan dalolat bermoqda. Sababi shifrlangan ma’lumotlar anchayin xavfsiz, ishonchli va eng muhimi, ma’lumotlar oshkor bo‘lib qolish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Shu o‘rinda shifrlash tizimi nima ekanligini qisqacha yoritsam, bu degani huquqiy yoki boshqa turdagи hujjatlarni raqamli, ya’ni elektron bazalarga o‘tkazgan holda bu hujjatlarning xavfsizligini va maxfiyligini yanada kuchaytirishni tushunsak bo‘ladi.

Ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad, O‘zbekiston uchun yuridik ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsizligini ta’minalashda raqamli shifrlash tizimini yaratish takliflarini ishlab chiqish, ushbu takliflarni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan usullar, texnologiyalar va uslublar tizimini tubdan takkomillashtirishga ximat qiladigan g‘oyalarni yoqlashdan iborat hisoblanib, shu kabi g‘oyalarni o‘zimizning ham milliy shifrlash tizimimizni yanada yangi usullar va uslublar tizimi bilan boyitib, davlat organlari va fuqarolar uchun foydalanishni keng targ‘ib qilishdan iborat. Bu maqsadlardni amalga oshirishda quyidagi asosiy vazifalarn belgilab o‘tilgan.

- Huquqiy ma’lumotlarni shifrlash standardlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- Yuridik ma’lumotlar bazasini yaratish va boshqarish uchun maxsus platforma ishlab chiqish;
- Shifrlash tizimining texnik xavfsizligini ta’minalash va muntazam sinovlardan o‘tkazib, yanada takomillashtirib borish;
- Foydalanuvchilarni tizimdan foydalanish bo‘yicha o‘qitish va xavfsizlik madaniyatini oshirish;
- Milliy shifrlash tizimining huquqiy asoslarini ishlab chiqish va qonuniy tartibga solish.

Ushbu qator vazifalar bo‘yicha olingan ko‘nikmalar va takliflar O‘zbekistonda milliy shifrlash tizimini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu soha bo‘yicha qo‘srimcha malumotlar olishga ko‘maklashadi.

USULLAR

Ushbu maqola mavzuni chuqurroq o‘rganish maqsadida texnik va huquqiy usullarni qo‘llagan holda yoritildi. Quydagi tadqiqot usllaridan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: ushbu mavzuga oid kitoblar, maqolalar va boshqa manbalarda foydalanildi. Bundan tashqari Google Scholar, ccdcoe kabi ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi.

Global Cybersecurity Index, Journal of Empirical Legal Studies, Asiatacademy kabi ma’lumot bazalari orqali qidiruv amalga oshirildi ma’lumotlar tahlil qilindi.

So‘rovnama: Ushbu mavzu yuzasidan kichkina bir so‘rovnama o‘tkazdim, ya’ni o‘quvchilardan ushbu savollar so‘raldi; O‘zbekistonda ham milliy shifrlash tizimini

takomillashtirishga munosabatingiz qanday degan savolga deyarli barcha so‘rovnoma ishtirokchilar ijobiy munosabatda bo‘lishdi, bu loyiha anchagina yaxshi istiqbolga ega ekanligini ta’kidlashdi, ammo bu kabi loyihalar endi rivojlanayotgani bois so‘rovnoramadagi aksar ishtirokchilar bu haqida ma’lumotlarga ega emasligini ham guvohi bo‘ldik, ushbu o‘quvchilarga buning avzaliklari va noavzalliklari haqida tushuntirishlar olib borildi, turli ma’lumotlar berib o‘tildi. Bu kichkina so‘rovnoma natijalari tahlil qilinib, bu sohani tatbiq etish nechog‘liq muhim ekanligi o‘rganib chiqildi.

Hodisani o‘rganish: Bu tizim hozirgi qator rivojlangan davlatlar; Yevropa Ittifoqi, AQSH, Rossiya, Xitoy, Estoniya raqamli shifrlash tizimlari faoliyatida o‘rganildi. Ushbu davlatlarning huquq tizimda bo‘lgan o‘zgarishlar, kiritilgan yangiliklar, keltirgan foydalari keng tahlil qilindi va qo‘srimchalar takliflar berib o‘tildi.

Huquqiy tahlil: Ushbu davlatlar tajribasida shifrlash texnologiyalarini yuridik sohada qo‘llash orqali fuqarolarning ma’lumotlari xavfsiz saqlanishi, maxfiylikni oshirish va huquqni muhofaza qilish organlar harakatlarini yanada ishonchlilagini ta’minlash kabi ma’lumotlarga ega bo‘lindi va O‘zbekistonda ham milliy shifrlash tizimlarini takomillashtirish uchun ushbu tajribalardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi.

NATIJALAR

Maqola natijasida ushbu sohaga oid quyidagicha asosiy ma’lumotlar olindi.

Ushbu tizimni qo‘llab quvvatlaydiganlar:

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, so‘rovnomada ishtirok etgan qatnashchilarning deyarli 75 % dan ko‘p qismi bu tizimni yoqladi, qolgan 25% foizi hech qanday ma’luotga ega emas yoki bu tizimni yoqlamadi.

- 50% so‘rovnoma qatnashchilari bu tizimni qo‘llash ancha avzallik tomonlari borligi va milliy huquqiy ma’lumotlar yanada ishonchli saqlanishini ta’kidladi
- 25% ishtirokchilar ham qo‘llab quvvatladi ammo bunga ko‘p mablag‘ kerakligini inobatga olib, keljakda qo‘llay olamiz degan fikrga to‘liq ishonch hosil qilisholmadi.
- Qolgan 25% qatnashchilarimiz esa bu haqida ma’lumotga ega emasligi sababli ularga ma’lumotlar berdik, yangiliklar bilan tanishtirdik, qo‘srimcha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib bordik.

Milliy raqamlash tizimining foydalari:

Milliy raqamlash tizimi bir nechta qator avzalliklarga ega ular quyidagilarda aks etadi:

1. Ushbu tizim orqali hujjatlarni almashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarining sifati tezligi oshadi. Bu esa sud protseslarida va boshqa shu kabi yuridik jarayonlarni tezlashtirib, iqtisodiy jihatdan ham samarali bo'lishiga yordam beradi.
2. Qulay va foydalanish uchun juda oson. Ma'lumotlarni shifrlangan raqamli shaklda saqlash ularni qiyinchiliklarsiz topish va xavfsiz tarzda ularashishga imkon yartadi.
3. Shifrlangan raqamli ma'lumotlarni kodlarga almashtirilgan holda ularani maxfiyligini ta'minlanadi. Bu esa nafaqat ma'lumotlarni yo'qotish xavfini kamaytiradi, balki ularni noto'g'ri qo'llanishidan ham himoya qiladi.
4. Shaffoflik va nazoratni kuchaytirish, ya'ni shifrlangan raqamli tizimlar orqali barcha hujjatlar va jarayonlar shaffof bo'lib, ularni nazoarat qilish va monitoring hisobidan o'tkazish anchayin osonlashadi. Bu esa milliy huquq sohamizdagagi eng muhim muammolardan biri bo'lgan korrupsiyani kamaytirish va boshqaruvni adolatli tarzda ta'minlashga yordam beradi.
5. Keng miqyosda tahlil qila olish imkoniyati, ya'ni raqamlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilidsh va turli statistik ma'lumotlarni olish imkonini beradi, bu esa strategik faktlarni qabul qilshda asosiy rol o'ynaydi.
6. Yana bir eng muhim avzalliklarida biri shundaki, hujjat va ma'lumotlarni raqamli shifrlangan tizimga o'tkazilgandan so'ng barcha amallar elektron variantda amalga oshirildi, natijada bu hujjatlarni bir nechta nusxada qog'ozga chiqarish talabini kamaytiradi, bu esa atrof tabiiy muhitga ma'lum darajada salbiy ta'sirlarni kamaytirishga yordam beradi.

Milliy raqamli shifrlash tizimini yaratishning kamchiliklari:

Ma'lumotlarni tahlil qilish barobarida ushbu bir qancha kamchiliklar o'rGANildi, jumladan:

- I. Albatta birinchi navbatda xarajatlarni xiobga olish kerak, sababi milliy shifrlash tizimini yaratish va amalga oshirish uchun juda katta mablag'larni jalb etishga to'g'ri keladi. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, texnik qo'llab-quvvatlash, xodimlarni malakasini oshirib borish, yangi infratuzilmalarni yaratish kabi xarajatlar mana shu katta xarajatlar sirasiga kiradi.
- II. Milliy shifrlash tizimini yaratish murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos infrastrukturalarni va tajribaga ega mutaxassislarni jalb etadi. Texnologik asoslar yetarli bo'lmasa, tizim samaradorligi va xavfsizligi past bo'lishi mumkin va bu tizimning ishlashiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.
- III. Shifrlangan ma'lumotlar to'liq bo'lмаган holda zaxiraga olinishi, shifrlash kalitlari yo'qolishi yoki buzilgan holatlarda qayta tiklash qiyin bo'lishi mumkin va natijada yuridik ma'lumotlarning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

IV. Shifrlash tizimi albatta qonunlar va xalqaro normativ hujjatlar standardlariga mos bo‘lishi muhim, bu esa tizimda bir qatpr qiyinchiliklar vujudga ketirishi mumkin.

V. Mutaxassislar tomonidan ushbu, deyarli yangilik bo‘lgan tizimning joriy etislishi, ularning har doimgi odatiy holidan bunaqangi vaziyatga o‘tishi ularga qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin, hatto bazilar ishdan norozilik holatlari ham bo‘lishi mumkin.

VI. Hozirgi rivojlanib borayotgan kiber tahdidlarga qarshi bu shiffralsh tizimlari muttasil yangilab turish lozim. Tizim yangilanmasa kiberjinoyatlar qurboni bo‘lishi va buning oqibatida butun boshli davlat fuqarolarining ma’lumotlariga jiddiy zarar yetish kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

Bu kabi jiddiy zarar ko‘rilgan davlat sifatida Estoniyani olsak bo‘ladi. Bu davlatda 2007-yilda yuz bergan kiber jinoyatning nishoni, Estonia davlatining hukumati, sud, OAV larda ish tushurilgan milliy shifrlash tizimini buzib kirib, davlat siyosatiga oid bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘chirib tashlash edi. Va Estonianing milliy shifrlash tizimi yaxshi bo‘lmaganligi sababli bu kiberjinoyat qurboni bo‘lganini ko‘rsak bo‘ladi. Buni ham o‘zimizning milliy shifrlash tizimimizda qanchalik ahamiyatga ega ekanlini ko‘rsak bo‘ladi.¹

Milliy huquqiy raqamlashtirish tizimimizdagi yangiliklar:

O‘zbekistonda raqamli infratuzilma va raqamlashtirish yo‘nalishida sezilarli rivojlanish yo‘llarini bosib o‘tmoqda, bu yo‘lda har xil strategiyalar, qo‘sishcha funksiyalar qabul qilmoqda.

Bunga misol qilib “Raqamli O‘zbekiston —2030 ” strategik dasturini olsak bo‘ladi, bu strategik dastur doirasida 2020-yildan buyon davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va shu kabi boshqa sohalarda 600 ga yaqin loyihamalga amalga oshirililgan. Bundan tashqari milliy huquqiy raqamli shifrlash tizimini rivojlantirish maqsadida ushbu tizimda ishslash uchun mamlakatimizda 2021-yildan boshlab 500 mingdan ortiq yoshlar kompyuter dasturlashga o‘rgatilib kelinmoqda va 12 ming nafar davlat xizmatchilarining axborot texnologiyalri bo‘yicha malakasi oshirilgan. Shu bilan birga har bir hududda raqamli xizmatlarni keng joriy qilish uchun 460 ga yaqin loyihamalga amalga oshirilishi ko‘zda tutilmoxda². Bu yangiliklar shundan dalolat beradiki, O‘zbekistonda ham raqamli texnologiyalr sohasining jadal rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganligi va mana shu e’tibor tufayli faqat oldinga intilishga davat qilayotganidan dalolat beradi.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” ushbu strategiya haqida batafsilroq tanishamiz. Ushbu strategiya 2020-yildan 2030-yilgacha asosiy etiborini qaratgan bo‘lib mana shu davr mobaynida,

1

2

O‘zbekistonning deyarli barcha rivojlanayotgan sohalarini elektron raqamli tizimlarga o‘tkazish kabi maqsadni qo‘ygan o‘z oldiga. Mana shu strategiya asosida bir qancha loyihamar ishlab chiqilmoqda, bunga bir misol sifatida “IT PARK” loyihasini olsak bo‘ladi, ushbu loyiha ham aynan mana shu strategiya asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, bu loyihaning asosiy maqsadi ham barcha sohalarda raqamli tizimning joriy etilishini ta’minlash hisoblanadi. Barcha sohalar qatorida ushbu loyiha, huquq sohasida raqamli tizimlashtirishni rivojlantirishga keng bel bog‘lagan, xususan, Startap va investitsiyalarni jalg qilish, qo‘llab quvvatlash va investitsiyalarni jalg qilish orqali innovatsion yechimlar hamda sud, advokatura, prokuratura kabi sohalarning ishonchligini va yanada shaffof tarzda o‘z harakatlarini amalga oshirish uchun asosiy mezon vazifasini bajarib kelyapti. Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak ushbu strategiya va u asosida qabul qilingan loyihalarning vazifari barchasi O‘zbekistonda raqamli shifrlash tizimlari hamda barcha sohalarda elektron tizimlarning ishga tushirilishini keng ko‘lamlarda ta’minlashdan iborat hisoblanadi.

Yuridik soha uchun milliy raqamli huquqiy ma’lumotlar shifrlash tizimini yaratishning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi tutgan o‘rni :

Albatta jamiyat uchun kerakli, foydali va uning har bir azosining manfaatlariga xizmat qiladigan har qanday yangilik bo‘lar ekan, ushbu yangilikni birinchi navbatda mutaxassislar tomonidan tahlil qilinib, qonunchilikda belgilash zarurati tug‘iladi. Sababi shundaki jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy munosabatlar shunchalar xilma xilki, ushbu munosabatlar elementiga aylanadigan har qanday yangiliklar ma’lum bir qonun qoidalar asosida tartibga solinib turilmasa salbiy oqibatlarga olib kelishi turgan gap. Aynan milliy raqamli shifrlash tizimi ham mana shu yangiliklardan biri hisoblanadi. Va bu yangilik ham ma’lum qonunlar asosida tartibga solindi.

Binobarin, 2003-yilda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risidagi” qonuni. Bu qonun axborot tizimlarida xavfsizlikni ta’minlash va axborot resurslaridan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan. U O‘zbekistonda axborot sohasidagi xavfsizlik siyosatini belgilaydi va axborotlar xavfsizligini ta’minlashni davlatning majburiyati sifatida ko‘rsatadi. Bu qonun raqamlashtirish tizimimizning ilk bosqichlarida qabul qilingan soddarroq ko‘riishga ega. Lekin bizning mavzuimizga oid qabul qilingan asosoiy qonun bu, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi” qonun bo‘lib, u 2022-yilda 25-fevralda qabul qilinib, shu yilning 17-mart sanasida maqullangan. Bu qonun kiberxavfsizlikni oldini olish va raqamli tizimlashtirish sohasini yanada takommilashtirishga yordam berish maqsadida qabul qilingan bo‘lib, 8 bob, 40 moddadon iborat³.

Bundan tashqari shu qonun yuzasidan qabul qilingan “Kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim

³ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son

qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risidagi” qonun. Ushbu qonun qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 9-aprelda qabul qilingan va Senat tomonidan 2024-yil 21-iyunda maqullangan. Bu qonun 12 moddadan iborat bo‘lib, hali kuchga kirmagan⁴. Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, bu qonunlarning o‘zi ushbu loyihalarni amalga oshrishda zaiflik qiladi, shu bois bu muammoni hal qilish uchun ham kerakli chora-tadbirlar ko‘rilsa ya’ni yangi qonun hujjatlari yaratilsa ancha maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda yuridik ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash uchun milliy shifrlash tizimini yaratish dolzarb muammodir. Bu tizim ma’lumotlar maxfiyligini oshiradi hamda noqonuniy amallar bajarilishini oldini oladi. Xorijiy tajribalar, jumladan AQSH, Estoniya va Xitoy davlatlarining zamonaviy shifrlash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan tizimlar yuridik markaz ma’lumotlarini ishonchli saqlashda muvaffaqiyatli qo’llanmoqda. Biroq, bu texnologiyalarni O‘zbekiston sharoitidan kelib chiqib, mahalliy resurslarni xisobga olgan holda, moslashtirish muhim. Shu bilan birga malakali muttaxassislar yetishmasligi va texnologik infratuzilma cheklovleri kabi qiyinchiliklar milliy tizimimizni joriy qilishda to‘siq bo‘lib qoladi. Kelgusida aynan shu sohalarda kadrlar tayyorlash va moliyaviy qo’llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur hisoblanadi. Shu zayilda, tadqiqot O‘zbekistonda yuridik ma’lumotlar himoyasini yanada yanada kuchaytirish uchun asos yaratadi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘l ochadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo’nalishlarni taklif etish mumkin:

1. Sifatli shifrlsh algoritmlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish, ya’ni kelgusida o‘tkaziladigan tadqiqotlar yangi va kuchli shifrlash algoritmlarini yaratish va ularning samaradorligini bir muncha yuqori darajaga olib chiqish.
2. Milliy shifrlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamkorlik, raqamli shifrlash tizimi yuzasidan xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan birgalikda ya’ni ma’lumotalar va tajribalar almashinuvni vositasida O‘zbekistonda ham yuridik sohaga oid xavfsizlikni oshirish.
3. Raqamli shifralsh tizimlarini yaratish bo‘yicha kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish va ushbu sohaga oid mutaxassislarni tayyorlash, ularni tayyorlash uchun keraklicha va atroflicha sarmoyalar kiritish.
4. Huquqiy sohada raqamli identifikatsiyani joriy qilish, ya’ni shaxsiy va jamoviy ma’lumotlarni shifrlashda raqamli identifikatsiyalardan foydalanishni amalga joriy qilish.

⁴O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.09.2024 yildagi O‘RQ-964-son

XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatib berdiki, O'zbekiston milliy huquq tizimida ham raqamli shifrlash tizimlarini joriy qilish mumkinligi va bu shifrlash tizimlarini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish kerakligini yoritib berdi. Bundan tashqari hozirgi rivojlangan texnika inqilobi davrida har bir davlat uchun o'zining milliy huquqiy shifrlash tizimlariga ega bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, ushbu tizimdan foydalangan holda o'z faoliyatini olib borayotgan davlatlar anchagina xavfsiz bo'lgan axborotlar bazasiga ega bo'lgani va bu baza shu davlatlarning xavfsizligini ham oshirishga yordam bergenini ko'rsatib o'tdik.

Biroq, milliy huquqiy shifrlash tizimini joriy etishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud.

Bu sohada bilimli kadrlarning va mutaxassislarning yetishmasligi, bu kabi tizimni joriy qilish juda katta mablag' talab etishi, yetarlicha texnologiyalarning mavjud emasligi kabi qiyinchiliklar shular jumlasiga kiradi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun komplaeks yechimlar talab qilinadi.

Tadqiqot natijalarga asoslangna holda milliy huquq tizimimizda raqamli shifrlashni joriy qilish yuzasidan bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Bular orasida kadrlarni tayyorlash, yangi texnologik usullarni qo'llash, xalaqaro tashkilotlar bilan ma'lumotlar almashish, huquqiy hujjatlar xavfsizligini ta'minlash kabilar alohida o'rinn egallaydi.

Umuman olganda yaqin keljakda, bu tizim rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga yetishini inobatga olishimiz va bu milliy shifrlash tizimlarini davlat faoliyatining har bir sohasida qo'llashimiz zarur, albatta bunda xavfsizlikni ham birinchi o'ringa qo'yish lozim.

№	Muammo	Tavsiyavatakliflar (Nazariy)	Tavsiyavatakliflar (Amaliy)
1.	Moliyavitiy to'siqlar	Shifrlash tizimi uchun kiritilgan mablag'larning foydasini tushuntirish	Ushbu tizimni joriy etish uchun kerakli miqdorda mablag'larni jalb qilish
2.	Mutaxassis va kadrlar yetishmasligi	Ushbu sohaga doir bilimlarni yoshlarga berib borish	Keng qamrovli targ'ibot ishlarini olib borish va bilimli mutaxassislarni jalb qilish
3.	Ushbu tizimga xavf tug'diradigan kiberjinoyatlar	Bu jinoyatlarni oldini olish uchun kerakli xavsizlik qoidalarini ishlab chiqish	Ushbu raqamli shifrlash tiziminielektron bazasini kuchli shifrlangan kodlar orqali himoya qilish

4.	Aholining bu tizim haqida yetarlicha axborotga ega emasligi	Aholining kompyuetr savodxonligini oshirishga qaratilgan bilimva ko'nikmlarni tahlilqilish	Aholi o'rtasida har xil huquqiy tizimga oid targ'ibot ishlarini olib borish
5.	Huquqiy hujjatlarning zaifligi	Bu raqamli shifrlash tizimlarini chuqur tahlillardan o'tkazish	Bu sohani tartibga solish uchun yangi zamonaviy qonunhujjatlari yaratish

REFERENCES

1. Susskind, R. (2019). Online courts and the future of justice. Oxford University Press.
2. K. D. (2017). Artificial intelligence and legal analytics: New tools for law practice in the digital age. Cambridge University Press.
3. www.ccdcoe.news.com
4. Rostain, T. (2019). Robots versus lawyers: A user-centered approach. Georgetown Journal of Legal Ethics.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.09.2024 yildagi O'RQ-964-sон.
6. <https://theasiatoday.org/>
7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RQ764-sон